

QORAQALPOQ TILLARIDAGI AYRIM IBORALARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

Axmedova Aynura Quanishbay qizi ¹

¹ ToshDO 'TAU 4-kurs talabasi

MAQOLA MA'LUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received:11.11.2024

Revised: 12.11.2024

Accepted:13.11.2024

Ushbu maqolada tilshunoslikning zamonaviy sohasi – lingvokulturologiya, uning qoraqalpoq tilshunosligida o'rganilishi haqida ma'lumotlar berilgan. Qoraqalpoq tilidagi ayrim iboralarning lingvomadaniy xususiyatlari ochib berilgan.

KALIT SO'ZLAR:

lingvokulturologiya,
ibora, ma'no, frazema,
madaniyat, semantika,
til.

KIRISH. Biz foydalanadigan maxsus til, xususan, mazkur tilning tuzilishi fikrlarimizni, borliq haqidagi tasavvurlarimizni, xullas, muhim madaniy komponentlarni belgilab beradi. Bu qarash Edvard Sepirning farazida atroflicha yoritib berilgan. Edvard Sepirning fikriga ko'ra, til bizning hayot tarzimizni tavsiflovchi ijtimoiy meros qilib olingan malaka va g'oyalar majmuyi sifatida madaniyatdan tashqarida mavjud bo'lolmaydi. Til inson faoliyatlarining biri sifatida madaniyatning tarkibiy qismi hisoblansa-da, tafakkur shakli va muloqot vositasi sifatida madaniyat bilan bir qatorda turadi [5:12].

Til – madaniyatning ko'zgusi, madaniyat sandig'i, madaniyat tashuvchisidir. Unda nafaqat insonni o'rab turgan borliq, uning yashash sharoitlari, balki xalqning ijtimoiy o'zini o'zi anglashi, uning mentaliteti, milliy xarakteri, hayot tarzi, an'analari, urf-odatlar, axloqi, qadriyatlar yig'indisi va dunyoqarashi ham aks etadi. Til madaniyat sandig'i sifatida esa, u leksika, grammatika, iboralar, maqol va matallar, folklor, badiiy va ilmiy adabiyotlar, og'zaki va yozma nutqda xalqning milliy qadriyatlarini saqlab keladi. U yana ajdodlardan avlodlarga milliy madaniyat xazinasini meros qilib qoldiradi. Yosh avlod ona tili barobarida ajdodlarning boy madaniy tajribasini ham o'zlashtiradi.

Globalashuv, standartlashuv va madaniyatlarning aralashuvi yuz berayotgan hozirgi kunda xalqlarning tili va madaniyatini o'rganish, ularning ma'nolarini tahlil qilish, til va madaniyat mushtarakligini tadbiq etish dolzarb masala hisoblanadi.

Tildagi bir qator milliy xususiyatga ega leksik birliklar qatorida iboralarning ham alohida o'rni bor. Iboralar tilning keng imkoniyatlaridan biridir. U nutqning bo'yoqdorligini, rang-barangligini, takrorlanmasligini ta'minlovchi vositadir. Og'zaki nutqda iboralardan ko'p va to'g'ri foydalanadigan kishilarning nutqi ta'sirchan, o'tkir bo'ladi, nutqiy madaniyatining yuqori shakllanganidan dalolat beradi.

Iboralarning tarkibidagi so'zlar semantik jihatdan ajratilmaydigan, o'rni o'zgarmas bo'ladi, nutqqa tayyor holda olib kiriladi. Shuning uchun uning tarkibidagi biror so'zni olib tashlash yoki sinonimi bilan almashtirish, so'zlarning o'rnini o'zgartirish mumkin emas. Aks holda uning ma'nosi buziladi, to'g'ri shakllanmaydi.

Turkologiyada frazeologik birliklar grammatik qurilish, leksik-semantik tarafdin o'rganilib, qator yutuqlarga erishilgan. Jumladan, S.K.Kengesbaev, F.R.Axmetjanova, R.E.Jaykasova, R.M.Tayeva (qozoq tilida), G.A.Bayramov (ozorbayjon tilida), Ch.G.Sayfullin (uyg'ur tilida) va S.I.Muratovning „Turkiy so'zlarda turg'un so'z birikmalari" asarida frazeologik birliklar tadbiq qilindi.

Qoraqalpoq tilidagi frazeologiyalik so'z birikmalari ham tadqiqotchilarning e'tiborini jalb qilib, ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlarining obyektiga aylanib, ilmiy jihatdan keng o'rganilib kelayotgan masalalardan biri. Xususan, E.Berdimuratov qoraqalpoq tilining leksikasini o'rganuvchi sifatida, „Hozirgi qoraqalpoq tili. Leksikologiya" ilmiy asarida frazeologiyani leksikoliyaning bir bo'limi deb hisoblaydi. A.Bekbergenov „Qoraqalpoq tilining stilistikasi" kitobida frazeologiyalik so'z birikmalarining tilda stilistik jihatdan qo'llanishiga alohida e'tibor bergan.

Qoraqalpoq tilida J.Eshboev o'zining olib brogan tadqiqotlarining natijasida sifatida „Qoraqalpoq tilining qisqacha frazeologik lug'ati" kitobini chop etdi. T.Jumamurodov tomonidan maktab o'quvchilariga moslangan ikki tilli frazeologik lug'at ishlab chiqildi va bosmadan chiqdi. G.Oynazarovning „Qoraqalpoq tilidagi teng ikki komponentli frazeologizmlar" mavzusidagi ilmiy ishida qoraqalpoq tilidagi teng ikki komponentli frazeologizmlar haqida so'z etiladi.

G.Bekbergenova va B.Shaniyazov tomonidan qoraqalpoq xalq maqollari va ularning rus va ingliz tillaridagi muqobillari asosida lug'at tuzilib, bosmadan chiqdi. G.Bekbergenova uchta tildagi (qoraqalpoq, rus va ingliz tillaridagi) frazeologizmlarining semantik muqobillarini har taraflama o'rgandi. Q.Qoshanov, A.Umarov va G.B.Nuraboevalar

=====

tomonidan qoraqalpoq maktablarining 5 – 9-sinflariga bag'ishlangan rus tilining frazeologik lug'ati, Q.Qoshanovning qisqacha ruscha-qoraqalpoqcha frazeologik lug'ati ishlab chiqildi. Bu lu'gatlarning barchasi cho etilgan.

Iboralarda xalqning turmush tarzi, geografik sharoiti, tarixiy voqeliklari kabi tushunchalar aks etadi. Iboralar o'sha xalqning madaniyati, ma'naviyati, tarixi bilan bog'liq bo'ladi. Qoraqalpoq tilining frazeologik birliklari ham qoraqalpoq xalqining qadimiy o'tmishi, kechmishi, madaniyati, tafakkuri bilan bog'liq tarzida paydo bo'lgan va shakllangan. Masalan, qoraqalpoq tilida „tüyeden postın taslağanday”. degan ibora mavjud. Bu ibora semantik jihatdan biror voqea kutilmaganda yuz berishi, to'satdan sodir bo'lishi, o'ylamagan joyda voqealanishi singari ma'nolarni ifodalaydi. Xuddi shunday ibora Antarktida yoki Yevropaning ayrim davlatlarida, asosan, sovuq o'lkalarida qo'llanilmasligi ularning leksikonida yo'q bo'lishi, ya'ni ularning lug'at boyliklarida **tuya** bilan bog'liq frazeologizmlar uchramasligi mumkin. Sababi hammamizga ma'lumki, tuya asosan, issiq o'lkalarda yashaydi, issiq iqlimga, suvsizlikka chidamli hayvon hisoblanadi. Shunday ekan lug'at tarkibimizdagi bu ibora esa xalqimizning iqlim sharoiti bilan bog'liqligini, geografik jihatdan issiq hududda joylashganligimizni ifodalab turibdi.

Qoraqalpoq tilida tilning lingvokulturologik xususiyatini ko'rsatib beradigan iboralar talaygina. Shulardan biri – *“qara úydi basına kóterdi”* (“qora uyni boshiga ko'tardi”) iborasi. Ma'nosi esa qattiq jahli chiqqan, qandaydir voqeadan g'azablanganlikni bildiradi. Qora uy qoraqalpoq xalqining qadimdan kelayotgan, uzoq tarixdagi ota-bobolari tomonidan meros qoldirilgan milliy-madaniy yodgorliklardan biri. Axir “qora uy qoraqalpoq xalqining o'tmishidan so'ylaydi” deb bekorga aytilmagan. Haqiqatan ham bu uylar shunday yasaladiki, unda milliy madaniyatning barcha durdonalari, betakror naqshlari, milliy bezaklari aks ettiriladi, qulay ixcham tarzida yasaladi, hatto uni xohlagan odam yasay olishi ham mumkin. *“Sheńgel gúllegende bolıw”* (“ching'il gullaganda bo'lmoq”) iborasi. O'zbek tilidagi muqobillari – “tuyaning dumi yerga tekkanda”, “qizil qor yog'ganda”. Bu ibora bo'lishi mumkin bo'lgan voqea noaniq yoki hech qachon sodir bo'lmasligi ham mumkin kabi ma'nolarni ifodalaydi. Bu o'simlik, asosan yoz oylarida gullaydi. Ching'il (jungal) – buta turi, cho'l va adirlarda, sho'r tuproqlarda ham o'sadi. Qoraqapog'istoning ko'p mintaqalarida, deyarli barcha joylarida unib chiqadi. Hozirda u aynisa, Orol dengizining qumlik joylarida ko'paytirilmoqda. Chunki ching'il qumlarni mustahkamlab, sho'r yerlarni ko'kalamzorlashtirish xususiyatiga egadir. Ching'il o'simligining aniq gullash vaqti noma'lum ya'ni belgisiz, aynan bir vaqtda gullamaslik ma'nosi iboraga ko'chirilgan. *“Nan awız tiyiw”* (“non og'iz tegmoq”) frazeologik birligi. Bu nondan oling, nasibangizni yeng

degan ma'noda qo'llaniladi. Qoraqalpoq xalqida kimdir non yopayotgan paytda tandirning yonidan kimdir o'tsa yoki non pishirilayotganini ko'rsa, u odamga shunaqa deb taklif qilinadi. Nonga taklif qilish udumi hatto ko'p joylarda hozir ham saqlanib qolgan. Bu urf-odat ota-bobolarimizdan qolgan milliy an'anadir, bag'rikenglikning, samimiylikning bir ko'rinishidir. *"Aq uyli etiw"* ("oq uyli etmoq") iborasi. O'zbekcha muqobillari – "tanobini tortmoq", "kunini ko'rsatmoq". Bu ibora qoraqalpoq xalqining tarixiy o'tmishida nojo'ya ish qilgan odamni jazolash ma'nosini bildirgan, ya'ni salbiy ma'noga egadir. *"Iytten bir suyek qarizdar boliv"*, *"oliden bir suyek aliw"* ("iytdan bir suyak qarzdor bo'lmoq", "o'likdan bir suyak olmoq") iboralari – o'ziga xos iboralardan. Har kimdan har doim qarz so'raydigan, qarzi ko'p isonlarga nisbatan qo'llaniladi. *"Mañlayina aq shashıramaw"* ("peshonasiga oq sachramaslik") iborasi. Bu yerda "oq" so'zi sigir, chorva hayvoni ma'nosini ifodalagan, ya'ni peshonasiga sigir yozilmagan, chorva hayvonlari nasib qilmagan degan ma'nolarni bildirib kelgan, kambag'allik, yetishmovchilik va boshqa keng ma'nolarda ham ishlatiladi. *"Aqlay quda boliv"* ("oqlay quda bo'lmoq") frazemasi. Bu ibora urf – odat ma'nosidan kelib chiqqan. Sharq xalqlarining ko'pchiligiga tegishli an'ana, ya'ni qiz-ayollarning taqdirini, yoshlarning taqdirini ota-bobolarning qarori bilan, duosi bilan o'zlari hal qilishi, kelishishi. ikki yosh, qiz bilan yigit hali dunyoga kelmasidanoq ularni bir-biriga unashtirish haqida kelishib qo'yishadi. Bunaqa an'analar, ya'ni ota-bobolarning qarori yoshlar uchun qonun bo'lgan. Qoraqalpoq tilining izohli lug'atida "aqlay" so'ziga quyidagicha ta'rif berilgan. Aqlay – belgisiz vaqtda, oldindan, avvalroq, oldin ola, avval boshdan deb ifodalangan. Bundan ko'rinish turganidek, bu frazema ham xalqimizning o'ziga xos an'alarini ochib bergan desak, mubolag'a bo'lmaydi. *"Beli narday bũgiliw"* ("beli nordek bukilmoq") iborasi ham yuqorida ta'kidlab o'tilgandek, tuyaning ya'ni issiq o'lkada joylashganligimiz, qadimdanoq tuyaning xalqimiz hayotida, og'ir yuklarni tashishda, bir joydan ikkinchi joyga ko'chishida (qoraqalpoq xalqi qadimda ko'chmanchi xalqlardan biri bo'lgan), cho'l joylarda yo'l yurishida muhim rol o'ynagan. Iboraning ma'nosiga kelsak, bilamizki tuya bukilgan paytda yoysimon holatda egiladi. Inson asosan, qiyin holatga tushganida, og'ir tashvish chekayotganida "beli bukilib qolibdi" deyiladi. Bunda insonning ko'chma ma'nodagi beli bukilishi, qiyin holati tuyaning egilishiga o'xshatilgan. *"Añin aldiriw"* ("ovini , o'ljasini oldirmoq") frazemasi. Bu ibora biror ish sababli aql-hushini yo'qotmoq yoki nima qilayotganini bilmasdan aqli o'zida bo'lmaslik singari ma'nolarni ifodalashda qo'llaniladi. Bu frazema qoraqalpoq xalqining milliy timsoli "Alpomish" dostonida ham keltirilgan. Tarixdan ma'lumki, xalqimiz qadimgi davrlarda muayyan hoyvonlarni ovlash bilan kun kechirgan. Ota-bobolarimiz kundalik

turmushidagi voqealar, yashash sharoiti, maishiy holatlar mana shunday iboralarda namoyon bo'ladi. *"Abirayi ayranday tógiliw"* ("obro'si ayrondek to'kilmoq") iborasi insonning obro'si ma'lum qandaydir hodisaning sababidan yerga to'kilmoq, yer bilan yakson bo'lmoq, obro'si bir tiyin bo'lmoq ma'nolarini bildiradi. Bilamizki, ayron bu xalqimiz hayotida qadimdan chanqoqni bosish uchun foydalanayotgan ichimlik bo'lib, qatiqning kuv (guppi)da moyi ajratilgandan so'ng qolgan suyuq qismi. Ayronning suvi maxsus tayyorlangan xaltadan o'tkazilib, suzmadan qurt qilinadi. Bu odam uchun foydali moddalarga boydir. Hozirgi kunda ham ayron chekka qishloq joylarda qo'l mehnati orqali tayyorlanadi.

Xulosa qilib aytganda, tilning eng muhim vazifalaridan biri uning madaniyatni yaratish, rivojlantirish, saqlash va yetkazishdagi ishtirokidir. Madaniyatni o'zida namoyon qiluvchi eng asosiy leksik birliklar esa frazeologizmlardir. Xalqning, millatning qadimgi o'tmishi, kechmishi, turmush tarzi, urf-odatlar, an'analari, marosimlari, udumlari iboralarda, maqollarda o'z aksini topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Eshbaev J. Qoraqalpoq tilining qisqacha frazeologik lug'ati. – Nukus, 1985.
2. Nasirov D, Dospanov O. Qoraqalpoq tilining dialektologik lug'ati. – Nukus, 1983.
3. Dawletov T, Abdinazimov Sh, Dawletova A. Qoraqalpoq tilining imlo lug'ati. – Nukus, 2017.
4. Ayapbergenova M. Qoraqalpoq tilidagi sifat ma'noli frazeologizmlar. – Nukus, 2012.
5. Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. – Toshkent, 2019.
6. Paxratdinov Q, Bekniyazov Q. Qoraqalpoq tilidagi frazeologizmlar. – Nukus, 2012.
7. Qalenderov M. Qoraqalpoq tili sinonimlarining qisqacha lug'ati. – Nukus, 1990.
8. Tursunova N. Turli tizimli tillardagi milliy-madaniy xususiyatlarni ifodalovchi frazeologizmlar va ularning lingvokulturologik tahlili. – Andijon, 2021.
9. Abdurazzoqova G. O'zbek tilidagi non, osh, tuz konseptlarini ifodalovchi frazeologik va paremiologik birliklarning lingvokulturologik tadqiqi. – Namangan, 2018.